| <b>Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li</b>                                                                                                              |     |
| Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....                                                                                                       | 346 |
| <b>Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich</b>                                                                                                                   |     |



# MUAMMOLI KREDITLAR: YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

**Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Ipoteka-bank" ATIB Yashnobod filiali

Monitoring bo'limi boshlig'i

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimiz tijorat banklarini so'nggi yillarda qiynab kelayotgan – muammoli kreditlar (NPL) to'g'risida ma'lumot berilgan. Muammoli kreditlarni kelib chiqish sabablari o'rganilgan, ularning ayni kundagi holati tahlil qilingan, shuningdek bartaraf qilish bo'yicha jahon tajribasi asosida taklif va tafsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bank, kredit, qarz oluvchi, muddati o'tgan qarz, muammoli kredit, NPL, kredit monitoringi, kredit qaytmaslik xavfi.

**Abstract:** This article provides information on problem loans (PL) that have plagued commercial banks in our country in recent years. The causes of problem loans are studied, their current state is analyzed, and proposals and explanations are given based on world experience for their elimination.

**Key words:** bank, loan, borrower, overdue debt, problem loan, non-performing loans, loan monitoring, risk of loan default.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о проблемных кредитах (НОК), которые преследуют коммерческие банки нашей страны в последние годы. Изучены причины проблемных кредитов, проанализировано их современное состояние, даны предложения и разъяснения на основе мирового опыта по их устранению.

**Ключевые слова:** банк, кредит, заемщик, просроченная задолженность, проблемный кредит, неработающие кредиты, мониторинг кредита, риск невозврата кредита.

## KIRISH

Ayni kunda mamlakatimiz bank tizimi jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. So'nggi 8 yil davomida mamlakatimizda 12 ta yangi bankka Markaziy bank tomonidan bank opirasiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi lisenziya berildi va tijorat banklarini ro'yxatga olish davlat kitobida qayd etildi. Bu, o'z navbatida Prezidentning "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni talablarining izchil amalga oshirilayotgani tasdig'idir. Biroq, ayni kunda tijorat banklari misli ko'rilmagan va O'zbekiston tarixida kuzatilmagan – kredit qo'yilmalarining salbiy oqibatlari bo'lgan – muammoli kreditlarga qarshi kurash boshladi.

Tijorat banklaridagi muammoli kreditlar salmog'i yil sayin ortib bormoqda. Buning natijasida banklarning moliyaviy barqarorligi zaiflashmoqda, aktivlar sifati pasaymoqda, xarajatlar ko'lamiga kengaymoqda, hamda Markaziy Bank talabiga ko'ra maxsus xaxiralar yaratilishi oqibatida daromad miqdori kamaymoqda [1].

Natijada, tijorat banklari oldida, ichki va tashqi omillar, shuningdek yo'l qo'yilgan kamchiliklar hisobiga yuzaga kelgan muammoli kreditlarni undirish va kredit portfelini sog'lomlashtirish masalasi birlamchi va dolzarb vazifa sifatida kun tartibidan joy olmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmining bank tavakkalchiligi va daromadiga bog'liqligining nazariy-amaliy jihatlarini xorijiy qator iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan, xususan: Iqtisodchi olimlar Baron, Xiong va boshqalarning fikricha – "kredit hajmining o'sishi odatda yomon yakunlanadi va zaif moliyaviy ko'rsatkichlarga ergashadi" deb tushuntirishadi [3, 4, 5, 6, 7] (Baron va Xiong, 2017; Jord va boshq., 2013; Reinxart va Rogoff, 2009; Shularik va Teylor, 2012). Bu fikr agar tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar hajmi keskin oshib ketib qaytarilishi bilan bog'liq muammolar kuzatilsa to'g'ri bo'lishi mumkin. Bordaning fikricha "kredit hajmining ortishining asosiy sabab bo'lib, kredit berilishining yuqori intervallari natijasida vujudga keladi" deb ta'riflaydi [8] (Bordalo va boshq., 2018). Bu fikrdan shunday xulosa qilish mumkinki, kredit ajratilayotganda ma'lum oraliqlarda ko'payib ketishi jarayoni tushuniladi.

A.Bollardning fikricha "kredit kuyilmalarining belgilangan me'yorlardan sezilarli miqdorda oshishi, aktivlar va passivlar tarkiblari o'rtasidagi mutanosiblikning sezilarli o'zgarishi, bank passivlarining, jumladan, bank mijozlaridan jalb qilingan mablag'larning xatar darajasi oshganligidan dalolat beradi va eng muhimi, bank



faoliyati omonatchilar va kreditorlarning mablag'lariga, ularning ishonchiga juda bog'liqligi bilan izoxlanadi"[9] deb ta'riflaydi.

Gess va boshq. tadqiqotchilarning bank kreditlari kengayganligini ko'rsatish uchun kreditlarning o'sishini g'ayritabiiy o'lchovidan foydalangan. Shuning uchun, Foos va boshq. (2010) kreditning notekis o'sishini "alohida bank tomonidan berilgan kreditlar hajmining ortishi va shu mamlakatdan banklar tomonidan berilgan kreditlarning o'rtacha o'sishi o'rtasidagi farq" deb ta'riflaydi. Biroq, boshqa tadqiqotchilar ham shunga o'xshash fikrlarga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kreditlarni so'ndirish bilan bog'liq muammolar, odatda, tasodifan va birdan hosil bo'lib qolmaydi. Bu ma'lum vaqt davomida rivojlanib boradigan jarayon bo'lib, tajribali bank xodimi mijoz boshdan kechirishni boshlagan moliyaviy qiyinchiliklar jarayoni paydo bo'lishidan darak beruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlashi va vaziyatni yaxshilash hamda bank manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rish mumkin.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ularning ba'zilari qarzdor-mijozning faoliyati bilan, boshqalari esa bank faoliyati bilan bog'liq bo'lib, omillar ob'ektiv va sub'ektiv xarakter kasb etishi mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bankning ichki omillari kreditlar bo'yicha 67 % yo'qotishlarga sababchi bo'ladi. Bu ko'rsatkich tashqi omillar bo'yicha bor yo'g'i 33 %ni tashkil etadi.

Muammoli kreditlar kelib chiqishining kredit oluvchiga bog'liq bo'lgan sabablari aksariyat hollarda korxonani to'g'ri boshqara olmaslik ta'sirida namoyon bo'ladi (malakasizlik, reja va buxgalteriya faoliyatlari sifatsiz tashkil etilishi, xo'jalik yuritish jarayonining barcha jabhalarini qamrab ololmaydigan o'ta markazlashtirilgan boshqaruv).

Mijozning samarasiz faoliyati, shuningdek, mahsuloti sifatining pasayishi, bozordan chiqib ketishi, korxona moliyaviy nazoratining kuchsizligi, debitorlik qarzdorlikning ko'payib ketishi va boshqalardan kelib chiqishi mumkin.


Muammoli kreditlar kelib chiqishiga ta'sir etuvchi kredit oluvchiga bog'liq bo'lmagan omillar, asosan kutilmagan siyosiy hamda iqtisodiy voqea va hodisalar, qonunchilikda kiritilayotgan o'zgarishlar, iqtisodiy vaziyatning keskin yomonlashishi, ma'lum darajadagi texnologik rivojlanish tufayli mahsulot ishlab chiqarishni tez qayta qurolmaslik, ya'ni ishlab chiqarishning ma'naviy eskirishi, tabiiy ofatlar va boshqalar hisoblanadi [2].

1-jadval. Muammoli kreditlar kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar.

| №         | Ta'sir etuvchi omillar                                                                                                                                    | Ta'sir etish darajasi (%) |
|-----------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|
| <b>1.</b> | <b>Ichki omillar:</b>                                                                                                                                     | <b>67%</b>                |
| 1.1       | Ta'minot etishmasligi                                                                                                                                     | 22%                       |
| 1.2       | Kredit buyurtmasini o'rganishda axborotni noto'g'ri baholash                                                                                              | 21%                       |
| 1.3       | Faoliyat ustidan nazoratning zaifligi hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlamaslik va ular yuzasidan kerakli choralarni ko'rmaslik | 18%                       |
| 1.4       | Garov ta'minoti sifati pastligi                                                                                                                           | 5%                        |
| 1.5       | Shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyati yo'qligi                                                                                             | 1%                        |
| <b>2.</b> | <b>Tashqi omillar:</b>                                                                                                                                    | <b>33%</b>                |
| 2.1       | Kompaniyaning bankrot bo'lishi                                                                                                                            | 12%                       |
| 2.2       | Kreditorlarning qarzni qaytarishni talab qilishi                                                                                                          | 11%                       |
| 2.3       | Kompaniyaning bozorda ijtimoiy muammolar                                                                                                                  | 6%                        |
| 2.4       | O'g'rilik, firibgarlik                                                                                                                                    | 4%                        |

Ba'zida qarz oluvchiga bog'liq bo'lmagan omillar toifasiga debitorlik qarzlarni, xomashyo etkazib beruvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklarni, o'g'rilik va boshqalarni kiritishadi. Bu erda qarz oluvchiga nisbatan tashqi sabablar asos bo'lishi mumkin. Biroq, bu erda: qarzdor-mijoz xomashyoni to'la va o'z vaqtida etib kelishi, yuqori to'lov qobiliyatiga ega xaridorlarni tanlab olish, ishonchli qo'riqlash xizmatini tashkil etish, oqibatda kreditning qaytishi kechikishi yoki uning umuman qaytmasligiga olib kelgan zararlarni oldini olish uchun kerak bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshiradimi? – degan savol tug'iladi. Demak, bu omillarning paydo bo'lishida qarzdor-mijoz o'zi ham sababchi bo'lishi mumkin.

Bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sabablar ham turlicha bo'ladi. Biroq, bankka bog'liq bo'lmagan sabablarga ham, shuningdek, iqtisodiy holatning birdaniga yomonlashishi, bank tizimiga ishonch yo'qolishi, tabiiy ofatlar kabi nohush holatlarni kiritish mumkin. 1- rasmda muammoli kreditlarni kelib chiqish sabablarining tizimlashtirilgan tasniflanishi ishlab chiqilgan.



1-rasm. Muammoli kreditlar kelib chiqish sabablarining tasniflanishi<sup>1</sup>

Bankka bog'liq bo'lgan sabablar kreditlash jarayonida yuzaga keladigan turli salbiy holatlardan iborat:

- kreditni chuqur iqtisodiy tahlil qilish asosida emas, balki tanish-bilishchilik asosida berish;
- korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlari, uning haqiqiy ehtiyojlari haqida yuzaki tasavvurga ega bo'lish oqibatida kreditning risklilik darajasi noto'g'ri hisoblanishi;
- garovni yuqori baholash natijasida kredit ta'minoti etarli bo'lmayligi;
- kreditni noto'g'ri rasmiylashtirish, masalan, kredit shartnomasida kreditor-bank manfaatlarini himoyalash shartlari etarli emasligi;
- kreditdan foydalanish davrida qarzdorning faoliyati ustidan nazoratning sustligi va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda malakatimiz bank tizimi oldida turgan asosiy muammolardan biri garovga qo'yilgan mulkni noreal bahoda baholash natijasida kreditni so'ndirishning ikkilamchi manbai bo'lmish mazkur garovni bozor bahosida sotish bilan bog'liq qiyinchilik bilan izohlanadi. Savdoga qo'yilayotgan ko'char va ko'chmas mulkni sotish narxi aksariyat hollarda uning bozor bahosini aks ettirmayapti. Natijada esa banklar tomonidan garovga olingan mulkni sotish ancha qiyin kechmoqda.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra [3], 2024-yil 1-sentyabr holatiga banklarning kredit portfeli 509,7 trln. so'mga etgan bo'lsa, muammoli kreditlar qoldig'i 21,5 trln. so'mdan oshgan va jami portfeldagi ulushi 4,22 %ni tashkil qilgan.

1 Тухтабаев У.А. Муаммoli кредитлар ва уларни бартараф этиш йўллари. /Дисс. иқти.фан.номз. Тошкент, 2008.



Xususan, 2024-yil avgust oyida umumiy kredit portfel 9,0 trln so'mga, muammoli kreditlar qoldig'i esa 710 mlrd. so'mga ko'paygan.

Muammoli kreditlarning keskin o'sishi asosan Ipoteka-bank ATIB da (+724 mlrd. so'm) kuzatilgan. Bankning NPL miqdori hisobot davriga 4,0 trln. so'mdan oshib, umumiy kredit portfelining 11,4 foizini tashkil qilgan.

1-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida 2024 yil 1 sentyabr holatiga ma'lumot. mlrd. so'm.

| №                                   | Bank nomi                     | Kredit portfel | Muammoli kreditlar | (NPL)       |
|-------------------------------------|-------------------------------|----------------|--------------------|-------------|
| <b>Jami</b>                         |                               | <b>509 676</b> | <b>21 530</b>      | <b>4,2%</b> |
| <b>Davlat ulushi mavjud banklar</b> |                               | <b>354 815</b> | <b>15 063</b>      | <b>4,2%</b> |
| 1                                   | O'zmilliybank                 | 104 651        | 3 435              | 3,3%        |
| 2                                   | O'zsanoatqurilishbank         | 62 326         | 2 150              | 3,4%        |
| 3                                   | Agrobank                      | 59 422         | 1 933              | 3,3%        |
| 4                                   | Asaka bank                    | 37 461         | 1 784              | 4,8%        |
| 5                                   | Xalq banki                    | 28 452         | 1 492              | 5,2%        |
| 6                                   | Biznesni rivojlantirish banki | 22 018         | 2 465              | 11,2%       |
| 7                                   | Mikrokreditbank               | 16 314         | 1 113              | 6,8%        |
| 8                                   | Turon bank                    | 12 339         | 346                | 2,8%        |
| 9                                   | Aloqa bank                    | 11 620         | 345                | 3,0%        |
| 10                                  | Poytaxt bank                  | 212            | 0                  | 0,0%        |
| <b>Boshqa banklar</b>               |                               | <b>154 860</b> | <b>6 467</b>       | <b>4,2%</b> |
| 11                                  | Ipoteka bank                  | 35 649         | 4 066              | 11,4%       |
| 12                                  | Kapital bank                  | 30 017         | 797                | 2,7%        |
| 13                                  | Hamkor bank                   | 18 366         | 251                | 1,4%        |
| 14                                  | Ipak yo'li bank               | 13 469         | 177                | 1,3%        |
| 15                                  | Orient Finans bank            | 11 111         | 10                 | 0,1%        |
| 16                                  | Invest Finans bank            | 6 757          | 115                | 1,7%        |
| 17                                  | Davr bank                     | 6 164          | 55                 | 0,9%        |
| 18                                  | Anor bank                     | 5 899          | 145                | 2,5%        |
| 19                                  | TBS bank                      | 5 805          | 155                | 2,7%        |
| 20                                  | Trast bank                    | 5 604          | 160                | 2,9%        |
| 21                                  | Tenge bank                    | 3 857          | 138                | 3,6%        |
| 22                                  | Aziya Alyans bank             | 3 731          | 106                | 2,8%        |
| 23                                  | O'zKDB bank                   | 3 085          | 0                  | 0,0%        |
| 24                                  | Ziraat bank                   | 1 797          | 77                 | 4,3%        |
| 25                                  | Universal bank                | 1 385          | 14                 | 1,0%        |
| 26                                  | Garant bank                   | 896            | 135                | 15,0%       |
| 27                                  | Hayot bank                    | 464            | 0                  | 0,0%        |
| 28                                  | Madad invest bank             | 277            | 55                 | 19,7%       |
| 29                                  | AVO bank                      | 189            | 11                 | 5,8%        |
| 30                                  | Apeks bank                    | 103            | 0                  | 0,0%        |
| 31                                  | Yangi bank                    | 88             | 0                  | 0,0%        |
| 32                                  | Uzum bank                     | 79             | 0                  | 0,0%        |
| 33                                  | Oktobank                      | 49             | 0                  | 0,0%        |
| 34                                  | Eron Soderot bank             | 19             | 1                  | 4,9%        |
| 35                                  | Smart bank                    | 1              | 0                  | 0,0%        |
| 36                                  | Evroosiyo bank                | 0              | 0                  |             |



Davlat ulushi mavjud banklarning kredit portfeli avgust oyida 6,5 trln. so'mga ko'paygan. Jumladan, O'zsanoatqurilishbank, Agrobank, Xalq banki, Mikro kreditbank va Aloqa bankda kredit portfeli sezilarli o'sgan. Kredit portfelidagi muammoli kreditlar (NPL) miqdori esa 187,0 mlrd. so'mga kamaygan. Muammoli kreditlar faqatgina Asaka bankda (+63 mlrd. so'm), Mikro kreditbankda (+13 mlrd. so'm) va Turonbankda (+30 mlrd. so'm) ko'paygan. Qolgan barcha davlat banklarida avgust oyida muammoli kreditlar kamayishi kuzatilgan. Xususan, NPL kamayishi eng ko'p Agrobank (-77,6 mlrd. so'm), Xalq banki (-70,9 mlrd. so'm), O'zsanoatqurilishbank (-60,0 mlrd. so'm), O'zmilliybank (-37,0 mlrd. so'm) va Aloqa bank (-34,1 mlrd. so'm) hisobiga to'g'ri kelgan.

Davlat nazoratida bo'lmagan banklar jami kredit portfeli o'tgan oyda 2,5 trln. so'mga ortgan. Portfelning nisbatan ko'proq o'sishi Kapitalbank, Hamkor bank, Ipak yo'li banki va Anor bankda kuzatilgan. Kredit portfelidagi NPL miqdori esa 896 mlrd. so'mga ko'paygan. Invest Finans bank muammoli kreditlar kamayishiga asosiy hissani (-17,9 mlrd. so'm) qo'shgan. Mazkur sektorda Ipoteka-bank (+724 mlrd. so'm), Kapital bank (+69,0 mlrd. so'm), Ziraat bank (+40,0 mlrd. so'm), Trast bank (+27 mlrd. so'm), Davr bank (+24,0 mlrd. so'm), Hamkor bank (+21,0 mlrd. so'm) va TBS bankda (+10,0 mlrd. so'm) NPLning o'sishi qayd etilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar bank tizimida muammoli kreditlar ulushi ortib borayotganini ko'rsatdi. NPL o'rtacha ulushining o'tgan yilning mos davrida 3,9 foizdan 4,2 foizgacha oshishi banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin. Ayni paytda, davlat banklari va xususiy sektorda NPL ulushi 4,2 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagilarni hisobga olib, bank tizimining yuqori likvidli aktivlari darajasini, murakkab moliyaviy muhitda barqarorlikni va bank tizimi kapitalizatsiyasining yuqori darajasini saqlab qolish uchun muammoli kreditlar bilan ishlash dasturi uchta asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi kerak:

### 1) Muammoli kreditni undirish:

Manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, muammoli kreditlarni undirishda sud-huquq ishlarini keng joriy qilish va NPL ko'rsatkichlarini kamaytirish yuzasidan qonunchilikda belgilangan barcha mexanizmlardan samarali foydalanish.

### 2) Muammoli kreditni restrukturizatsiya qilish:

Kreditni restrukturizatsiya qilish, qarz oluvchiga to'lov qobiliyatini tiklash uchun vaqt topishga, bankka esa kredit sifatining maqbul toifasini saqlab qolishga, oxir-oqibat asosiy qarz va foizlarni olishga imkon beradi.

### 3) Muammoli kredit portfelini sotish:

Muammoli kreditlar portfelini sotish bank balansini yaxshilash va kredit portfelining sifatini yaxshilashning tezkor usuli hisoblanadi. Xalqaro tajribalarga tayangan holda, tijorat banklaridagi muammoli kreditlarni undirish hamda sifatini oshirishda maxsus yaratilgan moliyaviy tuzilmalarga yoki kollektorlik agentliklariga o'tkazish natijasida tugatish mumkin.

Biroq, mamlakatimizning amaldagi qonunchiligida kollektorlik faoliyati, kollektorlik agentligi tushunchalari yo'q. Qarzni undirish faqat undiruvchining da'vosidan keyin sud qarori yoki davlat organining boshqa ijro hujjati mavjud bo'lgan hollarda majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 2015 йил 13 июндаги 14/5-сонли "Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги қарори. (<https://lex.uz/docs/2703053>).
2. Тухтабаев У.А. Муаммоли кредитлар ва уларни бартараф этиш йўллари //Дисс.иқти.фан.номз. Тошкент, 2008.
3. Каралиев Т., Усмонов Б. "Аҳолининг банк кредитлари бўйича қарз юки таҳлили ва уни оптималлаштириш". // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 1, февраль, 2020 йил.
4. BIS Statistics Explore <http://stats.bis.org/statx>.
5. World Bank Group [US] <https://data.worldbank.org/indicator/fb.ast.nper.zs>
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий вебсайти.
7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Қўмитаси, 2021 "Макрокўрсаткичлар –2021".
8. <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1883295>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

